



TOG'AY MUROD HIKOYALARINING PRAGMATIK TAHLILI

Tursinbayeva Guzal Alimbayevna

Mirzo Ulug'bek nomidagi

O'zbekiston Milliy universiteti

Lingvistika: o'zbek tili mutaxassisligi

1-kurs magistranti

e-mail: gtursinbaeva.259@gmail.com

Annotatsiya: O'zbek badiiy asarlari bugungi kungacha har taraflama puxta o'rganilgan. Biroq pragmatik jihatdan tahlil qilinmagan ko'plab adabiy asarlar mavjud. Bu maqolada Tog'ay Murod hikoyalari pragmatikaning tayanch tushunchasi deyksis hodisasi va uning mohiyati "Kuzning bir kuni", "Ku-ku-ku...", "Er-xotin", "Bobosi bilan nevarasi" asarlari orqali tahlil qilindi. Tog'ay Murod hikoyalari deyktik xususiyatlari ochib berildi.

Kalit so'zlar: semantika, sintaktika, pragmatika, deyksis hodisasi, zamon deyksisi, makon deyksisi, shaxs deyksisi, narsa deyksisi.

Nutqiy faoliyat-bu insonlarni o'zaro bog'laydigan, fikr almashishga undaydigan hamda rivojlanishga chorlovchi eng muhim ijtimoiy hodisadir. Shu sababdan ham insoniyatning ilm-fan sohasidagi rivoji davomida nutqiy faoliyat tinimsiz ravishda o'rganilib kelinmoqda va bunga oid ko'plab tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Til tizimining, ya'ni lingvistik belgilarning nutqdagi funksional qo'llanilishini tilshunoslikning semiotika bo'limida o'rganiladi. XX asrning 30-yillarigacha lingvistik belgilar 2 yo'nalish bo'yicha tadqiq qilingan:

- Semantika;
- Sintaktika.



Ammo nutqiy jarayonni semantik va sintaktik jihatdan o'rganishlarda oqsashlar paydo bo'ldi. V.V.Petrov tilida aytganda: *“Inson qaysidir tilga xos semantik bilimlarsiz so'zlashi va yoki anglashi imkonsiz, ammo o'sha tilga xos semantik bilimlar egasi bo'lishning o'zi ushbu tilda anglash va so'zlash uchun kifoya qilmaydi, musiqali pyesadan ogohlik uning ijrosi uchun yetarli emas”*. Shu boisdan ham XX asrning 30-yillarida CH.I.Morris tomonidan *pragmatika* yo'nalishi ilmiy muomalaga kiritildi. **“Pragmatika”** -yunoncha *pragmos* so'zidan olingan bo'lib *“ish”*, *“harakat”* ma'nolarini beradi. Demak, semiotika -umumiy va keng qamrovli tushuncha bo'lib belgilar (tildagi so'zlar) tizimini uch tomonlama o'rganadi. unga ko'ra:

- Semantika- moddiy olamni aks ettiruvchi tushunchalarning ma'nosini o'rganadi.
- Sintaktika- belgi va belgi o'rtasidagi munosabatni o'rganadi.
- Pragmatika- belgining insonga, fikrlash uslubiga, axloqiga va his-tuyg'usiga ta'sirini kontekst asosida o'rganadi.¹

M. Hakimov aytganidek, pragmatika – bu fikr ifodalash taktikasidir.² Pragmatik tahlilda jonli nutqiy faoliyat muhim. Pragmatikaning tayanch tushunchalaridan biri sifatida nutqiy faoliyat va nutqiy vaziyatni o'rganuvchi tushunchalardan biri bu – deysis hodisasidir. Bu maqolada o'zbek adabiyotining yirik namoyondalaridan biri hisoblanmish Tog'ay Murodning mo'jaz, lekin chuqur ma'noga ega bo'lgan hikoyalarini tadqiq obyektiga aylantirdik. Ularni pragmatik tahlilning ichiga kiruvchi, deysis aspektida o'rganamiz. Deysis hodisasi bugungacha turlicha tasnif qilib kelingan. S.Levinson deysitik markazni 4 qismga ajratadi: 1. Markaziy shaxs; 2. Markaziy vaqt; 3. Markaziy makon; 4. Ijtimoiy markaz. Uning fikricha, markaziy shaxs so'zlovchini nazarda tutsa, markaziy vaqt uchun

¹ Ҳакимов М.Ҳ. Ўзбек тилида матннинг прагматик талқини. Филол. фанлар д-ри... дисс. – Тошкент, 2001; Ҳакимов М., Газиева М. Прагмалингвистика асослари. Дарслик. – ФарДУ: “Classic”. – Т., 2020.

² Yuqoridagi manbadan.



nutqiy harakat ijro etilayotgan davr muhim. ³ R.Lakoff ham deyksisni uch turga bo'lgan: A) vaqt-makon deyksisi; B) diskurs deyksisi C) emotsional deyksis ⁴. J.Lyons makon, zamon va shaxs tasnifiga ko'ra turlarini va deytik funksiyalarini tadqiq etgan⁵.

Deyksis hodisasi – pragmatik tahlilning eng muhim qismlaridan biridir. **“Deyksis”**- (grekchadan *“ko'rsatish, ishora”*) lison vositasida voqealikka ishora qilishdir⁶. Mas: *Men kecha soat **5 larda** imtihon topshirib chiqayotgandim, Abror ham **o'sha payti** kelib qoldi.* Deyksis hodisasi shaxsga, makon va zamonga ishora qilib kelish vositasidir. Ba'zan nutqiy vaziyatda narsa va predmetlarga ham ishora vositasini uchratishimiz mumkin, narsa deyksisini ham ilmiy muomalaga kiritilishimiz mumkin. Sababi, jonsiz va jonli (jonotlar) narsalarga ham ishora qilinishi mumkin diskurs jarayonida. M.B. Xo'jamqulova tasnifida deyksis quyidagicha ajratilgan:

1. **Zamon deyksisi;**
2. **Makon deyksisi;**
3. **Shaxs deyksisi;**
4. **Diskurs deyksisi;**
5. Sotsial deyksis turlariag bo'lgan.

Diskurs deyksis - so'zlovchining undan oldin aytgan gapiga ishora sifatida ham qo'llanadi. Masalan, *Bu bilan men sizni aybdor demoqchimasman* (so'zlovchi oldingi gapida tinglovchining aybdorligiga qisman ishora qilgan)⁷.

³ Xo'jamqulova M.B. Sodda gapda kommunikatsiya va pragmatika munosabati. Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olishi uchun taqdim etilgan dissertatsiya. Toshkent-2022

⁴ Lakoff R. Remarks on this and that // Berkeley Studies in Syntax and Semantics. – L: The MIT Press, 1974

⁵ Lenz Z. Deictic Conceptualization of Space, Time and Person//Deictic Conceptualisation of Space, Time and Person. - Amsterdam/ Philadelphia. John Benjamins Publishing Company, 2003. – P. 8.

⁶ Xo'jamqulova M.B. Sodda gapda kommunikatsiya va pragmatika munosabati. Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olishi uchun taqdim etilgan dissertatsiya. Toshkent-2022

⁷ Xo'jamqulova M.B. Sodda gapda kommunikatsiya va pragmatika munosabati. Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olishi uchun taqdim etilgan dissertatsiya. Toshkent-2022



Sotsial deyksis – deyksisning bu turi shaxsning ijtimoiy mavqeyi bilan bog‘liqdir. Shaxs mulqotining qay tartibda kechishi ham nutq jarayonida ijtimoiylikni ta’minlab beradi va bu jins, yosh yoki ijtimoiy kelib chiqish bilan ham bog‘liq bo‘lishi mumkin⁸. Ushbu maqolada ham M.B.Xo‘jamqulova deyksis hodisasi tasnifiga tayanib tahlil qilindi.

Zamon deyksisining tasnifi quyidagicha izohlanadi:

- Ham so‘zlovchi uchun, ham tinglovchi uchun ayon bo‘lgan zamonga nisbatan: *Hozir keldim.*
- So‘zlovchi va tinglovchi uchun ko‘rinmagan, ammo har ikkisiga ham ayon bo‘lgan zamonga nisbatan: *O‘sha payt men bu yerda yo‘q edim.*

Hali yuvilmagan bir paqir kartoshka ko‘tarib oshxonaga borayotgan yigitga:

- Mirkarim, bolalarni **kechaqi joyga** olib bor, endi tersa bo‘ladi,- dedi. (“Kuzning bir kuni” hikoyasi)

Yuqoridagi parchada zamon va makon deyksisi kuzatiladi. Birinchidan, so‘zlovchi berayotgan xabardan tinglovchi ogoh, bu zamon va makon deyksisi bir xil turda, ya’ni so‘zlovchi va tinglovchi uchun ko‘rinmagan, ammo har ikkisiga ham ayon bo‘lgan makon va zamonga nisbatan qo‘llanilgan.

Makon deyksisi uchun ham ushbu tasnif o‘rinlidir:

- Ham so‘zlovchi uchun, ham tinglovchi uchun ko‘rinib turgan va ayon bo‘lgan makonga nisbatan: *Bu yerlar menga otamdan meros.*
- So‘zlovchi va tinglovchi uchun ko‘rinmagan, ammo har ikkisiga ham ayon bo‘lgan makonga nisbatan: *Bosib olingan barcha joylar bizniki.*
- *Ha, mashina yuboring. Samarqand avtostansiyasi bor-ku, **o‘shatga** kelib tursin.* (“Kuzning bir kuni” hikoyasi)

⁸ Yuqoridagi manbadan.



Soʻzlovchi va tinglovchi uchun koʻrinmagan, ammo har ikkisiga ham ayon boʻlgan makonga nisbatan qoʻllanilgan.

- *Bu madaniyat bogʻi! **Bu yerda** parrandalar emas, xalq hordiq chiqarishi kerak!*
(*“Ku-ku-ku...” hikoyasi*)

Berilgan jumlada, makon deyksisi mavjud, xususan, soʻzlovchi va tinglovchiga koʻrinib turgan joy haqida gap bormoqda.

Shaxs deyksisi tasnifi:

- Ham soʻzlovchi uchun, ham tinglovchi uchun koʻrinib turgan va ayon boʻlgan shaxs: *Bu kishini qancha kutganimni tasavvur ham qila olmaysiz.*
- Soʻzlovchi va tinglovchi uchun koʻringan, ammo ikkalasiga ham ayon boʻlgan shaxs: *Sen bilgan oʻsha odam oʻgʻri.*

Bobosi televizorda qiziq tomosha koʻrib kulib yuboradi. Nevarasi nima gapligini payqamasa-da, bobosiga qoʻshilib kuladi. U tomoshaga qarab oʻtirib, hayron boʻladi: buncha koʻp odamlar qanday qilib shu kichkina qutining ichiga sigʻadi?...

- *Bobo, **bu odamlar** qayerda?*
- *Televizorning ichida-da, ulim.*
- *Shuning ichida uyi ham bormi? (“Bobosi bilan nevarasi” hikoyasi)*

Bu parchada shaxs deyksisi kuzatiladi, soʻzlovchi va tinglovchi uchun aniq boʻlgan va koʻrinib turgan.

- *Kecha de, Rahimjonov degan familiyaga bir telegramma keldi. Sengami, boshqagami, aniq emas. Har holda senga boʻlmasa kerak, chunki, telegrammada isming yoʻq. Ikkinchidan, metfakda ham shunaqa bola bor ekan. Chamasi, **oʻshanga** boʻlsa kerak telegramma. (“Kuzning bir kuni” hikoyasi)*

Bu kontekstda shaxs deyksisi kuzatiladi va aynan, soʻzlovchi va tinglovchi uchun koʻrinmagan, ammo har ikkisiga ham ayon boʻlgan shaxsga nisbatan qoʻllanilgan.



Diskurs deyksisi- so‘zlovchining undan oldin aytgan gapiga ishora sifatida ham qo‘llanadi.

- *Anavi atlaslar madaniyatga yot matomi? Qaysi mamlakatda shunaqa mato bor? Senlar noshukurlar: peshonangdagi madaniyatni ko‘rmaysanlar...*
- **Siz doim shunaqasiz.** Topgan gapingiz -o‘zbek atlasiga butun jahon xaridor, Samarqanddagi tarixiy binolar jahonda yo‘q. Unaqa – bunaqa... (“Er-xotin” hikoyasi).

Bu matnda diskurs deyksisi ifodalanib, O‘ralboy obrazining doimiy tarzda “Anavi atlaslar madaniyatga yot matomi? Qaysi mamlakatda shunaqa mato bor? Senlar noshukurlar: peshonangdagi madaniyatni ko‘rmaysanlar...” shunday gaplarni aytishiga ishora qilinmoqda.

Sotsial deyksis- deyksisning bu turi shaxsning ijtimoiy mavqeyi bilan bog‘liqdir. Suhbatdoshiga nisbatan bildirilayotgan munosabat yashirin yoki ochiq, ijobiy yoki salbiy, bevosita yoki bilvosita ko‘rinishlarga ega bo‘ladi: *Mamnuniyat bilan shuni aytishim mumkinki...*

Ushbu maqolada yuqoridagi M.B.Xo‘jamqulova tasnifiga qo‘shimcha tarzda narsa deyskisini ham ilova qildik. Sababi, matnlarda, shuningdek, nutqiy faoliyat jarayonida narsa- buyumlarga ishora qiluvchi deyksis hodisasini uchratishimiz mumkin.

Narsa deyksisi tasnifi:

- Ham so‘zlovchi uchun, ham tinglovchi uchun ko‘rinib turgan narsalarga ishora: *Musichalarimni ko‘rmadingizmi? -Ana hovlida.*
- So‘zlovchi va tinglovchi uchun ko‘rinmagan, ammo ikkalasiga ham ayon bo‘lgan narsa: *Bir hafta oldin sotib olgan kitobni o‘qib tugatdingmi? **O‘sha kitobni**, agar senga zarur bo‘lmasa berib tura olasanmi?*

-Musichalarimni ko‘rmadingizmi? -dedi.

*- **Ana hovlida!** O‘zlaridan ko‘rsin, haydadim, ketmadi... -dedi direktor boshini ko‘tarmay. (“Ku-ku-ku...” hikoyasi)*



Bu diskurs jarayonida, narsaga ishora mavjud, soʻzlovchi va tinglovchiga ayon, koʻrinib turgan jonli narsaga ishora berilgan.

- *E,yuzga nima boʻldi, kelin?*
- *Hozir yangi uylarga **manavunaga** linolium toʻshaladi. Bu oʻlgur yuvsa sirgʻanchiq boʻlib qoladi. Kecha yuvayotib deng, sirgʻanib ketib, yuzim bilan tushsam boʻladimi... (“Er-xotin” hikoyasi)*

Ushbu holatda, soʻzlovchi va tinglovchiga koʻrinib turgan narsa deysisi kuzatiladi, yaʼni narsaga ishora qilingan.

- *Bormaysan, oʻzim boraman.*
- *Voy, ja-a qiziqsiz-a, bir manda bormi shunaqa kiyim? Hamma madaniyatli xotinlar kiyishadi-yu...*
- ***Anavi atlaslar** madaniyatga yot matomi? Qaysi mamlakatda shunaqa mato bor?! (“Er-xotin” hikoyasi)*

Bu matnda “*anavi atlas*” deyilganda, soʻzlovchi va tinglovchi uchun koʻrinmagan, ammo ikkalasiga ham ayon boʻlgan narsaga ishora qilmoqda.

Xulosa qilib aytsak, Togʻay Murod hikoyalari pragmatik jihatdan tahlil qilish orqali asarning tub mohiyatiga yetishimiz mumkin va shu bilan birga, deysisi tasnifiga narsa-buyum deysisi ham qoʻshilsa, matnlarning pragmatik tahlili jarayonida mukammallikka erishgan boʻlamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xoʻjamqulova M.B. Sodda gapda kommunikatsiya va pragmatika munosabati. Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olishi uchun taqdim etilgan dissertatsiya. Toshkent-2022
2. Гак В. Г. Теоретическая грамматика французского языка. Синтаксис. – М.,1981



3. Ҳакимов М.Ҳ. Ўзбек тилида матннинг прагматик талқини. Филол. фанлар д-ри... дисс. – Тошкент, 2001; Ҳакимов М., Газиёва М. Прагмалингвистика асослари. Дарслик. – ФарДУ: “Classic”. – Т., 2020.
4. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. –Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2008.
5. Lakoff R. Remarks on this and that // Berkeley Studies in Syntax and Semantics. – L: The MIT Press, 1974
- ¹Lenz Z. Deictic Conceptualization of Space, Time and Person//Deictic Conceptualisation of Space, Time and Person. -Amsterdam/ Philadelphia. John Benjamins Publishing Company, 2003. – P. 8.
6. Tog‘ay Murod hikoyalari. Internet tarmog‘idan www.ziyouz.com
7. Tog‘ay Murod hikoyalari. kh-davron.uz saytidan.